

HALIMA XUDAYBERDIYEVA SHE'RLARIDA VAFO TIMSOLI

Minavarxo'jaye va Qizlarxon Qosimxo'ja qizi

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushu tezisda shoira Halima Xudayberdiyevaning she'rlaridagi vafo tushunchasi, ayollarga xos bo'lgan rashq, soddalik, jamiki ezgu fazilatlar ulug'lanadi. O'z navbatida, buyuk matonat egalari bo'lgan ayollar kamolot kishisi sifatida tasvirlanadi.

Kalit so'zlar: Vafo, rashk, soddalik, matonat, kamolot.

Annotation: This thesis glorifies the concept of loyalty in the poems of the poet Halima Khudoyberdiyeva, as well as the noble qualities characteristic of women- such as jealousy, simplicity, and all other virtues. In turn, women-who are the bearers of great courage -are depicted as individuals of spiritual and moral maturity.

Keywords: loyalty, jealousy, simplicity, courage, maturity.

Badiiy adabiyotning obyekti inson va uning ichki hissiy-shuuriy dunyosini tasvir etishdir. Bu yo'ldagi badiiy talqinlar rang-barang poetik obrazlar, turfa ramziy-majoziy tasvirlar, xilma-xil timsollar talqini orqali ro'yobga chiqariladi.

Vafo tushunchasi sadoqat, ishonch va sodiqlikni anglatadi, bu nafaqat nikohda, balki do'stlik, oilaviy va jamiyatdagi munosabatlarda ham muhim qadriyat hisoblanadi. Biz quyida tahlil qilmoqchi bo'lgan she'rda ham bu tushunchalar oliy qadriyat sifatida tan olinadi.

Begim, sizni tabiat raso qilib yaratgan,

Kimlarnidir o'ychan-u, sizni kulib yaratgan.

Nogahon berib qo'yib bu husnni, kamolni,

O'zi ham rashk, hasadga to'lib-yo'lib yaratgan.

Shoira she'r boshida "Begim sizni tabiat raso qilib yaratgan" degan misralar bilan boshlanadi. Anglashimiz mumkinki, shu birgina misra orqali shoira o'z yorini raso, mukammal, benuqson deb ta'riflaydi. Tabiiyki, bunday yorni hammadan rashk qilib, qizg'onib yashaydi. Nafaqat chiroyda, balki haqiqiy kamolot kishisi sifatida tasvirlaydi. Inson ko'nglidagi murakkab his-tuyg'ular, ruhiyatning g'oyat murakkab manzaralari ta'sirchan aks etadi.

Shoiraning she'rlarini, aksar badiiy asarlarni o'qigan misoli, ko'ngilochar yoki ko'ngil yozar mashg'ulot sifatida qo'lga olib bo'lmaydi. Shoira sevib, yonib, kuyib ko'ngil kitobini ochar ekan, siz ham shoira she'riyatining tuyg'ular qozonida qaynab, qovrilib, alanga olib kechinmalar olamiga kirib borasiz.

O'zga tortmam cheksam ham shuncha jabr-u jafoni

O'zgaga ham bermasman sizdek bir bevafo !

Shoira ijodida chaqmoq kabi chaqnagan, momaqaldiraqdek gumburlagan, seldek toshib kelgan she'rlar talaygina. Lekin shoira ham shunday she'rlari orasida ayol muhabbati, ayolning chinakam sevgisi uchun kurashishi, toshlarnida yorishga qodir bo'lgan buyuk sadoqati, kuchli rashki, o'zni unutar darajada sevishi, qizg'anishi, nozik qalb egasi ekanligini ko'rsatuvchi she'rlar alohida mavqega ega. Yuqorida biz ko'rayotgan she'r ham shunday asarlar sirasiga kiradi. Muallif aytyaptiki, men shuncha jabr-jafo ko'rsam ham, uni o'zimga yuk deb bilmayman, ya'ni o'zimga olmayman, tashvishlardan yengilmayman deyapti, biroq shuncha g'am tashvishim bo'lgani bilan sizdek insondan voz kechmayman, ya'ni bevafo bo'lsangiz-da hech kimga bermayman deyapti.

Shoira she'rning boshlanmasi va oxirida bir xil "Begim sizni tabiat" jumllarini takrorlagan va she'rga o'zgacha ohang bag'ishlagan.

Shoira she'rlarining mavzu mundariyasi hamda badiiy tasviri ozgacha. Ushbu ijod namunalari hali uzoq yillab she'riyat ixlosmandlari qalbida yashaydi.

REFERENCES

1. Literary theory. Two volumes..Volume 1-T: "Science". 1978.
1. Literary theory. Two volumes..Volume 2-T: "Science". 1979.
3. Otamurodova M. Distinctive features of the poetry of the independence period. Urgench-2019
4. Ibrohim Gafurov. "Halima ruhiyyati"m."Xalq so'zi"2019. February 22.
5. Kuronov S. On the descriptive possibilities of current poetry. 2010.